

1-SENTYABR - O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGI KUNI!

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:35 (67096)
2016-yil
29-avgust

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092



Go'zal va betakrorimsan, muqaddas
Vatanim, jonim senga fido,
O'zbekistonim!



*Bayrog'imiz hilpirar baland,
Humo qushi erur bizga yor.
Vatan, sening to'ylaring bu kun,
Qutlash uchun turibimiz tayyor!*



SHARAFLI KASB SAODATI

Istiqlol yillarida yurtimizda ta'lim sohasiga berilgan yuksak e'tibor samarasida unib-o'sib kelayotgan yosh avlod o'z iqtidori va salohiyati bilan dunyo ahlini hayratga solmoqda. Ularning bu kabi yutuqlarni qo'lga kiritishida ustoz-murabbiylarning o'rni beqiyos. Ana shunday fidoyi kasb egalaridan biri Qarshi shahridagi 2-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatining matematika fani o'qituvchisi Muhabbat Sharapovadir.

(Davomi 3-betda)



Sh. MAXMADIYEV olgan suratlari

Istiqlolimizning dastlabki yillaridanoq barkamol avlodni tarbiyalash davlatimizning eng ustuvor vazifasi etib belgilandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturining amalga oshirilishi mamlakatimizda har tomonlama sog'lom avlodni tarbiyalashga qaratilayotgan ulkan e'tiborning yaqqol tasdig'idir.

Istiqlolimizning 25 yilligi hamda yangi o'quv yili oldidan «Tong yulduzi» gazetasi tahrir hay'ati a'zosi Dilshod KENJAYEVni suhbatga chorladik.



BUYUK YURTNING FARZANDLARI HAMISHA G'OLIB,

deydi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Dilshod KENJAYEV

– Xalqaro musobaqalarda yurtimiz o'quvchilari hamisha g'oliblar safidan joy olishmoqda. Bu kabi xushxabarlarni ommaviy axborot vositalari orqali doimiy kuzatib boryapmiz. Jumladan, kuni kecha Tailand Qirolligi Chiang Mai shahrida bo'lib o'tgan matematika bo'yicha xalqaro musobaqada yurtimiz jamoasi ham munosib ishtirok etib, unda ikki nafar

gun o'zbekistonlik o'quvchilar hech kimdan kam emasliklarini amalda isbotlamoqdalar. 1995-yilgacha respublikamiz maktab o'quvchilari birorta ham xalqaro fan olimpiadasida ishtirok etmagan edi. Mustaqillik yillarida o'quvchilarimiz xalqaro fan olimpiadalarida jami 253 ta medal, shundan 20 ta oltin, 58 ta kumush, 177 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Bundan 20 yil oldin musiqa va

liya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Ruminiya, Gollandiya, Polsha, Rossiya, Ozarbayjon kabi ko'plab davlatlarda o'tkazilgan nufuzli xalqaro tanlovlarda ishtirok etib, 47 ta Gran-pri, 310 ta 1-o'rin, 182 ta 2-o'rin va 194 ta 3-o'rinni egalladilar. 1991-yilda xalqaro miqyosdagi sport musobaqalarida farzandlarimiz jami 31 ta medal olgan bo'lsa, mustaqillik yillarida 843 ta oltin, 623 ta kumush,

maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinmagan 200 000 ta oilaga bolalarni maktabga tayyorlovchi 7 nomdagi kitoblar to'plami tarqatildi.

MTMlarida badiiy gimnastika, shaxmat-shahka va boshqa ommaviy sport turlari bo'yicha seksiyalar, chet tili, kasb-hunarga erta yo'naltirish bo'yicha tashkil etilgan to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

– **Tahlilchilarning so'zlariga qaraganda, insoniyatning butun tarixi davomida hozirgi avlod o'tmishdoshlariga nisbatan savodxon ekani tan olinsa-da, sayyoramizda 113 million nafar bola maktabga bormaydi. Ilim-fan taraqqiy etgan shunday zamonada 130 million o'smir mutlaqo harf tanimaydi. Bu kabi ma'lumotlarni o'qiganimizda, beixtiyor qalbimizda shu muqaddas zaminda tug'ilib o'sganimizdan, ta'lim-tarbiya olayotganimizdan qalbimizda shukronalik hissi jo'sh uradi va jonajon yurtimizga munosib farzand bo'lishga undaydi, shunday emasmi?!**

– Bugun ta'lim tizimidagi yutuqlarimizni butun dunyo yaxshi biladi, tan oladi, e'tirof etadi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar, qator xorijlik ekspertlar O'zbekistonda har yili ta'lim uchun sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10–12 foizini tashkil etayotgani dunyoning eng ilg'or mamlakatlarida bu ko'rsatkich 3–5 foizdan oshmayotgan bir sharoitda havas qilishga arzigulik natija ekanligini ta'kidlab, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi muvaffaqiyatlari, 12 yillik majburiy ta'lim samaralariga mudom yuqori baho berib kelayaptilar.

699 ta bronza medallariga sazovor bo'lishdi.

– **«Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturida sog'lom bolani shakllantirishda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish, boshlang'ich ta'lim sifatini yaxshilash, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etgan holda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish tadbirlarini amalga oshirish chorlari belgilangan edi.**

– Ko'p yillik ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha axborotlarning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan. 2008-yilda «O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi» ishlab chiqildi. Unda maktabgacha ta'limning asosiy mazmuni, maqsadi, vazifalari, yangilanish tamoyillari, tatbiq etish yo'llari va ayniqsa, bolani shaxs sifatida shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

1991-yilgacha respublikada 8214 ta maktab mavjud bo'lib, ularning 57 foizigina loyihalashtirilgan binolarda joylashgan edi, 43 foizi moslashtirilgan binolarda, ulardan 33 foizi o'tgan asrning 40–60-yillarida hashar yo'li bilan paxsa va xom g'ishtdan qurilgan edi. Shu tufayli Istiqlolning dastlabki yillaridanoq ta'lim tizimini ham shaklan, ham mazmun tubdan isloh qilishga kirishildi, Yurtboshimiz rahnamoligida «Bu og'ir, mas'uliyatli, ammo hal qilishni aslo paysalga solib bo'lmaydigan ishini qadam-baqadam, izchillik bilan bajarishga bel bog'ladi».

Aynan Mustaqillik tufayli yurtimizda jami 4173 ta maktablar yangidan qurildi va rekonstruksiya qilinib, zamonaviy ko'rinishga keltirildi, zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasi bilan ta'minlashga 1,09 trln. so'm mablag' yo'naltirildi.


– **Chindan ham bugun Xalq ta'limi sohasida maqtashga, faxrlanishga arzigulik ishlar talaygina. Bu borada sizga va xalq ta'limi sohasi xodimlariga kuch-quvvat tilagan holda «Tong yulduzi» gazetasining minglab mushtariylariga tilaklarimiz...**

– Avvalo, yurtimizda tinchlik, xotirjamlik bo'lsin. Chunki tinchlik bor joyda yuksalish va intilish bo'ladi. Obodlik xalqimizga xos xislat, bunyodkorlik ruhiyatimizda bor, buni rivojlantirish va albatta, ro'yobga chiqarish lozim. Bu yo'lda o'quvchilarimizga omad tilayman. Mustaqilligimizning 25 yilligi muborak bo'lsin.

Feruz SOYIBJON qizi suhbatlashdi




O'quvchilarning darsliklar bilan ta'minlanishi



o'quvchi bronza medalga va umumjamo'a hisobida esa ikkinchi o'ringa sazovor bo'lishdi...

– Haqiqatan ham yurtimizda muhtaram Prezidentimiz boshchiligida ta'lim tizimida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bu

Ta'lim muassasalarining zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlanishi
Kompyuter sinflari soni



san'at yo'nalishida 3-4 nafargina o'quvchimiz xalqaro tanlovga yo'llanma olgan bo'lsa, mustaqillik yillarida iste'dodli yoshlarimiz har yili Fransiya, Ita-

qa muddatli» guruhlar tashkil etilib, mazkur guruhlar 7,4 mln AQSH dollari miqdoridagi o'quv mebel va rivojlantiruvchi ta'lim materiallari bilan ta'minlanadi. Mazkur MTMlarida tashkil etiladigan kutubxonalarni 50 nomdagi bolalar badiiy adabiyotlari bilan ta'minlash ham ko'zda tutilgan. Shuningdek, 3-6 yoshli farzandlari

SHARAFLI KASB SAODATI

Azal-azaldan xalqimiz ustozga yuksak hurmat-e'tibor, izzat-ukrom ko'rsatib kelgan. Farzandini ilm sohibi qoshiga olib borgan ota, muallimga o'z ehtimomini izhor qilgan. Muqaddas zaminimizda tug'ilib, dunyo ilmfan tamadduniga o'zining munosib hissasini qo'shgan buyuk allomalar – Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy, Imom Buxoriy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ham ana shunday ustozlar qo'lida saboq olib, yuksak maqomga erishgan.

– O'zing tug'ilib o'sgan, senga non-tuz bergan yurt farzandlariga saboq berish, ularga ilm o'rgatish yuksak sharaf, – deydi Muhabbat Sharapova. – Har gal qadrdon maktabim ostonasidan hatlarkanman, qalbim quvonchga to'ladi. Bu xursandchilikni so'z bilan ta'riflash mushkul.

Muallimning butun ish faoliyati ibrat maktabidir. 110 nafar shogir-



Muhabbat Sharapova Mustaqilligimizning 25 yillik to'yi arafasida Prezidentimiz Farmoniga binoan «O'zbekiston Qahramoni» yuksak unvoni hamda oliy nishon – «Oltin yulduz» bilan taqdirlandi.

– Menimcha, dunyoning hech bir mamlakatida ustozning mehnati bu qadar e'zozlanmasa kerak. Ushbu mukofot nafaqat menga, balki yurtimizdagi barcha o'qituvchi-murabbiylarga ko'rsatilgan yuksak ehtirom namunasi, deb bilaman, – deydi ustoz.

di bugun mamlakatimizning turli ta'lim muassasalarida matematika fanidan yoshlarga saboq berib kelayotgan Muhabbat Sharapova o'qituvchi va o'quvchilar uchun ko'plab ilmiy qo'llanmalar tuzdi. Shuningdek, ustozning o'ndan ziyod o'quvchisi xalqaro olimpiadalarda ishtirok etib, g'olib va sovrindorlar safidan joy oldi. 17 nafari esa Respublika fan olimpiadalari va «Bilimlar bellashuv»larida muvaffaqiyatli qatnashib, o'zining bilim va salohiyatini namoyish etdi.

– Bu kabi yutuqlarning qo'lga kiritilishi, shubhasiz, Istiqlol tufaylidir, – deydi muallima. – Farzandlarimiz dunyo kezmoqda, yuksak aql-zakovati bilan barchani hayratga solmoqda.

Inson qadri har narsadan ustun bo'lgan jonajon yurtimizda ustozni sharflash, uni e'zozlash har bir vatandoshimizning muqaddas burchidir. Zero, bobokalonimiz Abdulla Avloniy aytganidek, ta'lim-tarbiya biz uchun doimo hayot-mamot masalasidir.

San'dullo TURSINOV

31-avgust – Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni

AJDDODLAR YODI MUQADDAS

Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Botu... bu ro'yxatning tarixi uzun. Xalqning asl jonkuyar farzandlari o'zga yurtlarga surgun qilinib, o'sha yerlarda yurt sog'inchi, qadrdonlar diydoriga mushtoq o'tganlar yodi... Ularning ayanchli taqdiri-yu uzoq o'lkalarda qarindoshlarini yo'qlab yozgan maktublari, ayblov xulosalari, mung to'la yig'idan qizargan ko'zlar, aybi neligini tushunmagan sodda qiyofali insonlarning fotosuratlari...

Bularning hari poytaxtimizda tashkil etilgan «Qatag'on

Diyora MAG'RUPOVA:

– Muzeyga kiraverishdan o'rin olgan qop-qora rangli mashina barchani e'tiborini o'ziga qaratadi. Gid-ekskursovod Aziz Karimovning aytishicha, qora rangli bu mashina ko'pchilikning boshiga kulfat yog'dirgan ekan. O'sha davrda «Qora qarg'a»da olib ketilgan odam xonadoniga qaytib kelmagani uchun ham unga shunday nom berilgan ekan.

Odina ABDULAZIZOVA:

– «Qatag'on yillari»da nafaqat insonlar,

balki talaygina tarixiy obidalarimiz-u masjid, madrasalar ham tuproq bilan qorishtirilgan ekan. Boy ma'naviy tariximizni, o'tmishimizni, qadriyatlarimizni yo'q qilmoqchi bo'lganlarning niyatlari puch ekanligi bugun yaqqol namoyon bo'ldi.

Gulchehra AHMADJONOVA:

– Rasmlarda aks etgan lavhalarni ko'rib, o'sha davrda yashagan insonlarga naqadar qiyin bo'lganini angladim. Fotosuratlar, hujjatlar, o'sha davrdagi

insonlarning ayanchli qismati tarixga aylanib, qog'ozlarga muhrlangan. Ularning ko'pchiligini Istiqlol tufayli pok nomlari oqlanganidan quvonib ketdim. O'tmishni har birimiz har lahzada yodga olishimiz, hur mamlakatda voyaga yetayotganimiz uchun shukur qilishimiz lozim...

Robiya RAHIMOVA:

– Istiqlolimizdan so'ng ko'klamzorlashtirilgan «Shahidlar

qurbonlari xotirasi» muzeyidan alohida o'rin olgan. Ilgari «Alvasti ko'pri» deya qo'rqinchlinom olgan, hozir esa obod bir ziyoratgohga aylangan bu majmuada o'tganlar yodi esga olinib, ularning xotirasi ulug'lanadi. Sana munosabati bilan poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchilaridan bir guruhi «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyida bo'lib, u yerdagi eksponatlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishdi.



H. HAMIDULLAYEV o'lgan suratlari



xotirasi» maydonida bugun baxtiyor bolalarning shodon kulgarlari atrofni tutganligi naqadar quvonarli. Ko'kka otilyotgan favvoralar, turli-tuman gullar bilan qoplangan zamin... Yuqorida sanab o'tgan adiblarimiz mana shunday hur va ozod mamlakatni orzu qilishgan, shu mamlakat uchun jon fido qilishgan. Zero, bugun har birimiz o'tmishdan saboq chiqarib, osoyishta zamonamizning qadriga yetmog'imiz shart.

Ozoda TURSUNBOYEVA

EZGULIKNING UZUN YO'LLARI

Ezgulikning yo'llari uzun, deydilar. Inson biror ezgu amali uchun e'tibor qozonsa, rag'batlantirilsa, ko'ngli o'sadi, yanada kattaroq maqsadlar sari intiladi. Shu tariqa ezgulikning yo'llari uzayib, oydinlashib boraveradi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan fan, ta'lim, san'at, sport sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan qizlarimiz uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining ta'sis etilishi ezgulikning boshlanishi bo'lsa, bu yuksak mukofotga erishish uchun intilayotgan, qolaversa, sovrindorlarga havas qilib, ularga ergashayotgan qizlarimizning soni yildan yilga ortib borayotganini ezgulikning uzayib borayotgan yo'llariga qiyoslasak arziydi.

Mukofot – rag'bat, mukofot – imtiyoz, shuningdek, mas'uliyat hamdir. Buni teran anglagan sovrindor yoshlarimiz e'tirofga munosib bo'lish uchun astoydil o'qib-o'rganmoqdalar, izlanmoqdalar. Bunday intilishlari samarasi o'laroq, 240 nafar Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalarining 3 nafari fan nomzodi, 9 nafari Prezident, 3 nafari Navoiy, 1 nafari Ibn Sino stipendiyasi sovrindori, 5 nafari xalqaro fan olimpiadalari, 10 nafari xalqa-

ro san'at tanlovlari g'oliblari. 44 nafari sportning ko'plab turlari bo'yicha O'zbekiston, Osiyo, jahon chempionlaridir.

Har yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlarining Respublika anjumanini o'tkazish yaxshi bir an'anaga aylanib qoldi. Joriy yilda ham Mustaqil-



ligimizning 25 yilligiga bag'ishlab «Yoshlar ijod saroyi»da mukofot sohibalarining ijodiy, ilmiy faoliyatini monitoring qilish, yetakchilik, izlanuvchanlik va intellektual salohiyatini oshirish, tengdoshlariga ibrat bo'lishdagi tashabbusini kuchaytirish, erishayotgan yutuqlarini targ'ib etish maqsadida Respublika anjumani bo'lib o'tdi. Tadbirni Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Elmira Bosixonova ochib berdi. Sovrindor qizlarimizning erishayotgan yutuqlari haqida to'liqinlanib gapirdi. Shuningdek, munosiblarni qo'mitaning

Zikrilla TESHABOYEV, Farg'ona viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i, «Tong yulduzi» gazetasi tahrir hay'ati a'zosi:



Siz Mustaqil O'zbekistonning, tinch va osuda, o'z taraqqiyot yo'lini aniq belgilab olgan va katta maqsadlar bilan dadil odimlayotgan kelajagimiz yoshlarisiz.

ZAFAR YOR BO'LSIN!

– Mana, davlatimiz Istiqlolga erishib, boshimizga Humo qushi qo'ngan kunga ham bu yil 25 yil to'ldi. 25 yosh – inson umrining eng navqiron davri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, mustaqil yurtimizning navqironlik yoshiga yetib keldik, desak xato bo'lmaydi. Bir qarashda qisqadek tuyulgan bu davrda davlatimiz asrlarga tatigulik yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Istiqlol yillarida yurtimizda yoshlarni har tomonlama sog'lom va barkamol, intellektual salohiyatli shaxs etib tarbiyalash maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Barcha maktablar zamonaviy axborot texnologiyalari, o'quv-laboratoriya jihozlari, darsliklar bilan ta'minlandi. 25 yil avval viloyatimizda 2781 ta sport inshootlari mavjud bo'lib, ularning 32 tasi yaroqsiz holatga kelib qolgan bo'lsa, hozir sport inshootlari soni 4093 taga yetdi va ularning barchasi zamon talablari darajasida jihozlangan.

Bejizga bu raqamlarni eslamadik. Chunki bunday xayrli ishlarining barchasi sizlarning kamolingiz, istiqbolingiz uchun amalga oshirilmoqda. Endi siz bunday yuksak imkoniyatlar va g'amxo'rlikka javoban o'lo o'qishingiz, ilm-fanda, san'at va sportda, qo'yingki, barcha sohalarda zafar marralarini egallashingiz zarur.

tashakkurnomasi bilan taqdirladi.

Yosh shoirlarning mushoirasi, ayniqsa, xorijiy tillarni mukammal egallagan sovrindor qizlarning xitoy, yapon, fransuz, rus, arab, italyan, turk, grek, turkman tillarida o'qigan she'rlari, kuylagan qo'shiqlari, ijro etgan kuy-lari tadbirga yanada fayz bag'ishladi.

F. JALILOVA

Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va respublikamizdagi barcha viloyatlar «Barkamol avlod» bolalar markazi to'garaklari a'zolaridan iborat eng iqtidorli 28 nafar yosh ixtirochi qatnashdi.

Ishtirokchilar tanlovda avtomodel, aviamodel, raketamodel, kemasozlik, robototexnika va elektron o'yinchoqlar to'garaklarida olgan bilimlarining natijalari sifatida o'zlari yaratgan ixtirolari, maket va modellar bilan ishtirok etishdi.

– Qoraqalpog'iston Respublikasidan Ozoda Ubaydullayeva bo'laman, – deya o'zini tanishtirdi yagona ishtirokchi qiz. – Hozirda Nukus shahridagi 18-umumta'lim maktabining 9-«V» sinfida o'qiyman. Tanlovning «Robototexnika va elektron o'yinchoqlar» yo'nalishida men yasagan «Chang tozalovchi robot» 2-o'ringa loyiq topildi. Buning uchun ustozim Bek Atadjanovdan juda minnatdorman.

Samarqandlik yosh ixtirochi, 33-umumta'lim

Eng ulug', eng aziz bayramimiz arafasida «Barkamol avlod» Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazida

«SOG'LOM BOLA BUYUK ISHLARGA QODIR»

shiori ostida Respublika ko'rik-tanlovi o'tkazildi

maktabining 5-sinf o'quvchisi Hasan Akbarov esa o'ziyurar avtomobili bilan 3-o'rinni egalladi. Kabinasi pult orqali yuqoriga ko'tarilib, harakatlanuvchi mashina ko'p qavatli uylarda yashovchi kishilarga favqulodda vazir-

yatlarda yordam berishga mo'ljallangan ekan. «Katta bo'lsam, yangi avtomobil turlarini yaratuvchi muhandis bo'laman», deydi u faxr bilan suhbat chog'ida.

Yakuniy natijalarga ko'ra, «Boshlang'ich

texnik modellashirish va konstruksiyalash» yo'nalishida 1-o'rin Jizzax viloyatidagi 12-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Ulug'bek Abduvaliyevga, 2-o'rin Qo'qon shahridagi 30-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Isroiljon Nosirovga, 3-o'rin esa Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi 11-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Salohiddin Qosimovga nasib etdi.

«Robototexnika va elektron o'yinchoqlar» yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni Jizzax shahridagi 10-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Otabek Mo'minov egalladi.

Shuningdek, tanlov ishtirokchilari orasidan «Eng yosh ixtirochi», «Eng yosh loyiha muallifi», «Eng chiroyli dizayn muallifi», «Eng chiroyli maket muallifi» nominatsiyalari g'oliblari ham aniqlandi.

G'oliblarga Xalq ta'limi vazirligining diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Dilorom HOTAMOVA



O'ZBEKISTON YOSHLARI HECH KIMDAN KAM EMAS

Xabaringiz bor, Navoiy shahridagi 11-IDUM o'quvchilaridan bir guruhi ustoz Vazira Azimova bilan birgalikda Angliyada bo'lib qaytishdi. 20 kunlik safar davomida o'quvchilar ingliz tilida og'zaki va yozma nutq hamda o'qib tushunish malakalarini oshirishdi.

O'quvlar yakunida dunyoning 20 dan ortiq mamlakatidan kelgan 400 nafarga yaqin o'quvchilar orasidan 10 nafari bilimi, odobi va intiluvchanligi, imtihonlardagi yuqori natijalariga muvofiq sertifikat va qo'shimcha faxriy yorliqlar bilan mukofotlandi. Eng quvonarlisi, ushbu o'n nafar o'quvchining beshtasi aynan O'zbekiston o'quvchilari edi.



Jasmina ESHNAZAROVA, 6-sinf o'quvchisi:

– Buyuk Britaniyaning turli shaharlarida bo'lganimda, nazarimda, shirin tush ko'ra-

ytoganday edim. Ayniqsa, Oksfordga tashrifimiz chog'ida butun boshli shahar Universitet ekanligidan juda hayratlandim. Ilgari mendan «Kelajakda kim bo'lmoqchisan?» deyishsa, «Ingliz tili o'qituvchisi», deb javob berardim. Endi esa shunday javob beraman: «Men kelajakda o'qituvchim Vazira Azimova singari bilimli, fidoyi, jonkuyar ustoz bo'lgan».

Aziza ODILOVA, 7-sinf o'quvchisi:
– Ustozimiz avvallari «Angliya», «London» mavzularini o'tganda, London shahrida bir kunda 4 faslni ko'rish mumkin, desalar, tasavvur qilolmaganmiz. Angliya poytaxtiga safar chog'ida bu gaplar qancha-

YUKSAK MARRALAR SARI

– Viloyatimiz o'quvchilari erishgan muvaffaqiyatlar salmog'i yil sayin ortib bormoqda. Birgina Qorako'l tumanidagi 1-ixtisoslashgan iqtidorli bolalar maktab-internati hamda Buxoro davlat universiteti qoshidagi 3-akademik litseyida tabiiy, aniq va gumanitar fanlar bo'yicha tahsil olayotgan iqtidorli o'quvchilarimiz mamlakat va xalqaro olimpiadalar g'olibi bo'lishdi.

Ayniqsa, xalqaro olimpiadalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan 20 dan ziyod o'quvchilar Rossiya, Vyetnam, Ispaniya, Ruminiya, Koreya Respublikasi, AQSH, Shotlandiya kabi qator davlatlardagi oliygohlarga imtiyozli ravishda o'qishga kirib, bugun mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida ulug' maqsadlar bilan xizmat qilishmoqda.

Barchangizni Mustaqilligimizning 25 yilligi to'yi bilan samimiy muborakbod etaman. Tilagim, qo'lga kiritayotgan yutuqlarimiz bardavom bo'lsin!



Mirzohid
MADAMINOV,
Buxoro viloyati
XTB boshlig'i:

lik haqiqat ekanini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Tarixiy va zamonaviy binolarga qarab, shunday dedim: «Bizning binolarimiz ham hech bir mamlakatdan qolishmas ekan».

O'quvchilarning porlab turgan nigohlari- ga boqar ekanmiz, chet elliklarni lol qoldirib, kelgan mustaqillikning iste'dodli yoshlariga havas qildik. Yo'lingiz oq, kelajagingiz porloq bo'lsin, O'zbekiston yoshlari!

NURBEK

LESSON 102

SENSE OF PRIDE (Faxr tuyg'usi)

When I was born our street had another appearance, today it is very beautiful, fresh and lovely.

Few days ago I went to walk with my elder sister. Do you know this while we were going on the bus I saw the new, smooth and beautiful roads, and comfortable buildings. I felt sense of pride to our motherland. All these reformations because of independence.

That day we spent our day very interesting because we heard wonderful news about my sister Go'zal, she entered to the University. She was very happy and she is a student now.

Kumush TURG'UNOVA,
the pupil of school №54 in O'rta Chirchiq district, Tashkent region

INDEPENDENCE (Mustaqillik)

25 Year

Independence – it is peace,
Independence – we were miss.
Independence – blue sky,
Uzbek people never cry.


Independence – smooth roads,
High buildings, skilful hands.
Independence – is my luck,
Beautiful wishes of my heart.

ibrohim FAYZIRAHMONOV

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

DO YOURSELF

Separate these words to the groups:



December, Sunday, today, new year, February, winter, May, Monday, yesterday, the day before yesterday, old year, January, March, Tuesday, tomorrow, April, June, autumn, Wednesday.

The day after tomorrow, last day, next day, spring, summer, September, November, July, Friday, Saturday, every day, week-end, school day, August, October, Thursday, academic year.

CROSSWORD

Dear pupils translate these words and fill the boxes.

- Tinchlik
- Ahillik
- G'ayratli
- Mehmondo'st**
- Saxiylik
- Adolatli
- Rivojlangan

Prepared by Dinora

Painter: YOQUBBEK

VATAN ISHQI UFURGAN QALBLAR

O'zining muqaddas tuprog'ini qadrlashni ilg'ayotgan ijodkor o'quvchilarimizning bizga yo'llagan she'riy maktublaridan Vatani ishq u furib turganiga guvohimiz. Ko'ngilning betakror chechaklarini qog'ozga tushirib, quvonchi qalbiga sig'mayotgan yoshlarimizga Vatani ishq hech qachon qalbingizni tark etmasin, degimiz keladi. Yurtimizning kundan kun yashnab borayotganini ko'rib, qalbimiz faxr-iftixorga to'ladi.

Hadisi sharifda Vatanni sevmok

TINCHLIK QO'RG'ONI

Yurtlar ichra tanho bir makon,
Tuprog'ing o'paysin ey, jannatmakon.
Shaharlaring tengsiz bir bog'-u bo'ston,
Qalblarda yashaysan, hur O'zbekiston.

Shunday go'zal yurtda tug'ilib o'sdim,
Vataning qadri anglagin, do'stim.
Kelajakda sen ham unga xizmat qil,
Tug'ilgan koshonangni ilk Vatani deb bil.

Gullarga burkangan aziz oshyonim,
Sen uchun tasadduq bo'lsin bu jonim.
Tinchlik yashnayversin qo'rg'onlaringda,
Eng ulug', eng aziz - O'zbekistonim!

Azizbek RAHMATOV,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
8-IDUM 6-«A» sinf o'quvchisi

BITMAS DOSTONIM

1-sentyabr shodiyona to'ying,
Shu kundan tiklandi o'tmish tarixing.
Ko'kka bo'y cho'zgan chamanistonim,
O'ziga bek bo'lgan O'zbekistonim.

To'qsan, o'zbek eli o'z noning bilan,
Halol mehnat qilding, vijdoning bilan.
Tengsizsan, o'z paxtang, bug'doying bilan,
O'ziga bek bo'lgan O'zbekistonim.

Gullab-yashna, mangu chamanistonim,
Sen mening quvonchim, bog'-u bo'stonim.
Go'zal, betakrorim, bitmas dostonim,
Jonim senga fido, O'zbekistonim.

Kumushoy RO'ZIMBOYEVA,
poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi
Respublika ixtisoslashtirilgan maxsus
san'at litseyining 6-sinf o'quvchisi

MEN YASHAYMAN OSUDA

Qay yurtlarda nonga zor,
Bolalar asraydi jon.
Niholday go'daklaming,
Umri bo'lmoqda xazon.

Qay yurtlarda o'qishni,
Orzu qilar tengdoshim.
Bu sohada doimo,
Ko'kdadir mening boshim.

Men yashayman osuda -
Jannat yurtda sog'-omon.
Onamning ismi - Vatani,
Otam-chi - O'zbekiston!

Durdona NURMATOVA,
Jizzax tumanidagi
23-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

iymondandir, deya yozilishida olam-olam ma'no bor. Har kim o'z tug'ilib o'sgan tuprog'ini qadrlaydi. Uni jondan suyib, madh etishga tushadi.

Aziz o'quvchi! Biz bugun maktublardan saralab, sizga havola qilayotganimiz tengdoshlaringizning Vatani haqidagi ko'ngil kechinmalaridir. O'ylaymizki, u, albatta, sizlarga manzur bo'ladi.

AXTAMQULI



QUTLOV

Daryolaring doim, sharqirab oqsin,
Quyoshing falakdan quvonib boqsin.
Farzandlaring she'ri dilga o't yoqsin,
Tug'ilgan kuning muborak, yurtim.

Kechalari ko'chalaring yorug' kunduzdek,
Mustaqillik porlasin yorug' yulduzdek.
Ko'zlari tegmasin qutlug' yoshingga,
Yomonlar bosh egsin kelib qoshingga.

Kundan kunga chiroy ochib borajak,
Seni kutayotir ajib kelajak.
Men seni qutlayman, aziz Vatanim,
Yigirma besh yoshing bo'lsin muborak!

Munisa VAFOYEVA,
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi
48-umumta'lim maktabining 7-sinf
o'quvchisi

GULLARNING SO'ZI

Vatani menga ulug'dir,
Har qarichi qutlug'dir.
Go'zal bo'lsam men qancha,
Yurtim go'zaldir shuncha.

- Men binafsha, havorang,
Go'zalligimga qarang.
Ona tuproqdir onam,
Buni olamdan so'rang.

Abbos SHODMONQULOV,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om
tumanidagi 104-umumta'lim
maktabining 6-sinf o'quvchisi

Vahobjon RAJAPOV,
Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi bosh-
lig'i, «Tong yulduzi» gazetasi tahrir hay'ati a'zosi:

BILIMDONLAR PARVOZI BALAND

- 1991-yilda jami 572 ta umumta'lim maktablari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2016-yilda maktablar soni 685 tani tashkil etdi. Qo'shimcha 113 ta maktab qurildi hamda 80345 nafar o'quvchilar uchun yangi o'qish o'rinlari yaratildi.

Mustaqillik yillarida umumta'lim maktablari dunyo andozalariga mos ravishda, o'quv mebel jihozlari hamda kompyuter texnika vositalari bilan ta'minlandi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash, o'qituvchi hamda o'quvchilarning bilim darajasini yuksaltirishda asosiy omil bo'ldi.

Quvonarlisi, 2015-2016-o'quv yilida o'quvchilarimiz fan olimpiadalari, «Bilimlar bellashuvida Respublikada yuqori natijalarni qo'lga kiritishdi. Sport, musiqa yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan nufuzli musobaqalarda ham sovrindorlar safidan joy olishdi. Eng ulug', eng aziz bayramimiz arafasida sizlarga yaratilgan keng imkoniyatlardan foydalangan holda bundan-da yuqori natijalarni qo'lga kiritishingizga zafar yor bo'lishini tilayman.



MADHIYAMIZ YANGRAGANDA...

O'zbekning g'ururi, kuyi - madhiya,
Yangragan chog'ida quvna ketaman.
Bu ham bir hurmatning isboti, deya,
Ko'ksimni tog' kabi baland etaman.

So'ngra anglagandek bo'laman shu on,
Qo'lim ko'ksimdadir yurak urishin.
Vatanning bag'rida kuylayman shodon,
Erk-u ozodlikning quvnoq yurishin.

Yurtim, sening bosgan izing tufayli,
Osmonimda uchar erkin kabutar.
Yana bir yosh ulg'ayding, har ishing xayri,
Qalaming bizmiz-u sen oppoq daftar.

O'zbek iftixori, kuyi - madhiya,
Doim madh etilsin qo'li ko'ksida.
O'zbek farzandim, bu - baxtim, deya,
Ruhlanib yozilsin doston, qasida.

E'zoza USMONXO'JAYEVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur
tumanidagi 34-umumta'lim maktabining
8-«V» sinf o'quvchisi

BAYRAMING MUBORAK, O'ZBEKISTONIM!

Bu dunyoda diyorlar bisyor,
Har birining o'zin o'rni bor.
Olam aro tengsiz chamanim,
Ta'rifing beqiyos erur Vatanim.

Zaminda zar sochib tinmaydi quyosh,
Bir o'lakki, men uchun yo'ldosh.
U bugun navqiron yigirma besh yosh,
Bu mening Vatanim - O'zbekistonim!

Sevarbek ELBOYEV,
Toshkent shahar, Yakkasaroy
tumanidagi 118-umumta'lim
maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi



O'ZBEKISTON – MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI O'RTASIDA BIRINCHI!

Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlari barchaning diqqat markazida bo'ldi. G'olib va sovrindorlar ro'yxatida O'zbekiston sportchilari 4 ta oltin, 2 ta kumush va 7 ta bronza medal bilan umumjamoa hisobida 21-o'rinni zabt etdi. Bu ko'rsatkich O'zbekiston sport delegatsiyasi Osiyo davlatlari orasida 4-, MDH davlatlari orasida 2-, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida 1-o'rinda ekanligini ko'rsatadi.

larida hamyurtimiz Magomed Ibragimov 97 kilogrammgacha bo'lgan polvonlar bahsida Olimpiya o'yinlarining bronza medali bilan taqdirlandi. O'zbekistonlik yana bir erkin kurash ustasi Ixtiyor Navro'zov vazni 65 kilogrammgacha bo'lgan polvonlar bahsida bahraynlik Adam Botirovni, Puerto-Riko vakili Franklin Gomezni va mo'g'ul-

tonlik Mandahnaran Ganzorigini yengib, bronza medalni qo'lga kiritdi.

Bir so'z bilan aytganda, XXXI yozgi Olimpiada o'yinlarida sportchilarimiz erishgan g'alabalardan qalbimiz faxr-u iftixorga to'ldi. Biz galdagi nufuzli musobaqalarda atletlarimizga omad va zafarlar tilaymiz.

Shukrulla G'ULOM

Bir kunning o'zida O'zbekiston sport delegatsiyasi hisobiga 2 ta oltin medalni qo'shgan sportchilar Shahobiddin Zoirov va Fazliddin G'oyibnazarov bo'ladi. Vazni 52 kilogrammgacha bo'lgan bokschilar o'rtasidagi final bahsida Shahobiddin Zoirov rossiyalik Misha Aloyanni mag'lub etdi. Boks bo'yicha vazni 64 kilogrammgacha bo'lgan sportchilar o'rtasidagi hal qiluvchi bahsda Fazliddin G'oyibnazarov ozarbayjonlik Lorenzo Kollazo Sotamayorni mag'lubiyatga uchratib,

shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

O'smirlar o'rtasida Osiyo va jahon chempioni, II o'smirlar Olimpiadasi g'olibi, kattalar o'rtasida Osiyo chempioni, jahon chempionati sovrindori Bektemir Meliqo'ziyev boks bo'yicha vazni 75 kilogrammgacha bo'lgan sportchilar bahsida kumush medalni qo'lga kiritdi.

Erkin kurash bellashuv-



MALIKALAR BELLASHUVI

Navoiyda futbol bo'yicha qizlar o'rtasida «Yashil maydon malikalari» musobaqasining mamlakat bosqichi bo'lib o'tdi.

Yurtimizda xotin-qizlarni sportga jalb etishga qaratilgan alohida e'tibor, ayniqsa, qizlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Joylarda xotin-qizlar o'rtasida sportning omamaviyligini oshirish va sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etishga qaratilgan qator musobaqalar bo'lib o'tmoqda.

«Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!» shiori ostida tashkil etilgan «Yashil maydon malikalari» musobaqasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent, Surxondaryo va Navoiy viloyati jamoalari g'oliblik uchun bellashdi. Musobaqa so'ngida g'oliblar aniqlandi. Surxondaryolik futbolchi qizlar 1-o'rinni egalladi va bosh sovrinni qo'lga kiritdi. Qoraqalpog'istonliklar 2-o'rinni egallashdi. Toshkent viloyati vakillariga 3-o'rin nasib etdi.

Ulug'bek SAIDOV



MAHALLA SHARAFI UCHUN

Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol ulg'ayishida bolalar sportini rivojlantirishga doir amalga oshirilayotgan ishlar muhim omil bo'lmoqda.

Andijonda «Sog'lom ona va bola yili»ga bag'ishlangan «Futbolimiz kelajagi» musobaqasida viloyatdagi 868 mahallada o'tkazilgan musobaqada 55 mingdan ziyod bolalar va o'smirlar ishtirok etdi. Uning mahallalararo, tuman va shahar hamda mintaqaviy bosqichlarida 2500 dan ziyod jamoa g'oliblik uchun bahs olib bordi.

Yaqinda musobaqaning final bosqichi bo'lib o'tdi. 17 jamoa uch yosh toifasida g'oliblik uchun bellashgan musobaqaning 9 – 10 yoshlilar guruhida Paxtabod tumanining Uchko'za mahallasi, 11 – 12 yoshlilar o'rtasida Andijon shahridagi 8-mahalla fuqarolar yig'ini va 13 – 14 yoshlilar o'rtasida Marhamat tumanining Bozorboshi mahallasi jamoalari 1-o'rinni egalladi.

Zarnigor MUSAYEVA



Mustaqilligimizning 25 yilligiga bag'ishlab Guliston shahridagi ALPOMISH sport majmuasida kombat aykido bo'yicha Sirdaryo viloyat ochiq chempionati bo'lib o'tdi.

GULISTONDA SPORT BAYRAMI

Musobaqada Toshkent, Guliston shaharlari hamda Sirdaryo viloyatining Boyovut va Guliston tumanlaridan kelgan 7 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan jami 33 nafar maktab va kollej o'quvchilari ishtirok etishdi. Turnir ko'tarinki ruhda o'tdi. Eng kichik qatnashuvchi 7 yoshli Sardor Jo'rayev 18 kg vazn toifasida faxrli 1-o'rinni egalladi.

Bellashuvlar yakuni-da Xalqaro kombat aykido assotsiatsiyasi Sirdaryo viloyati bo'limi raisi Davronbek Omonov ishtirokchilarni erishgan muvaffaqiyatlari bilan qizg'in qutladi va g'oliblarga esdalik sovg'alari topshirdi.

I. SULTONOVA, Sirdaryo viloyati



ENG CHIROYLI LIBOS

Eshikdan opa-singil Zilola va Ra'no tortishib kirib kelishdi-yu, buvijonlariga yuzlanishdi. Dastlab, Zilola:

– Buvijon, qarang, qaysi birimizning ko'ylagimiz chiroyli? – dedi.

Ra'no esa aksincha, xonaga kirishi bilan buvisiga: – Assalomu alaykum, – deya salom berdi.

Onaxon kelini tikib bergan bir-biridan chiroyli liboslarni kiyib olgan nabiralari mehri ko'zi bilan boqarkan:

– Ra'no qizimning ko'ylagi chiroyli, – dedi.

– Nega endi? Axir ko'pchilik dugonalarim mening ko'ylagimni chiroyli deyishdi-ku, – dedi Zilola tixirlik qilib.

– Yo'q, Ra'noda dunyodagi eng chiroyli libos – o'dobi bor. Afsus, buni senda ko'rmadim. Agar hammada ham mana shunday libos bo'lganida, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi, – deya javob berdi onaxon.

Zilola buvijonisiga salom berishni unutganligidan uyalib qoldi.

Dildora QARSHIBOYEVA,
Jizzax viloyati, Zomin tumani akademik litsey o'quvchisi

IFTIXORIMSAN, VATAN!

Vatan – biz tug'ilib o'sgan ona tuproq, ulug' va muqaddas makon. Suyuklardan suyuk, buyuklardan buyuk, tirkak tayanchim, butun borlig'im, nomus-u orim, yurakdagi iftixorimsan – Vatan!

Seni sevib, yotko'zlardan asrayman, ardoqlayman, jannatmakon yurtim, deya atayman.

Ona Vatanimni Humo qushiga qiyoslayman. Biz yoshlar esa uning qanotlarimiz. Nasib bo'lsa, yurt bag'rida ilm olib, hunar egalab, uning dovru'g'ini dunyoga yoyamiz. Tilagim, Istiqlolimiz abadiy bo'lsin!

Shukrona ismi qizaloq 11 yoshda. Onasi Aziza opa bugun uni barvaqt uyg'otdi. Uyqusi chala bo'lgan qizaloq erinibgina o'rnidan turdi. Nonushtadan so'ng ota-onasi ishga otlanishdi. Aziza opa ishga ketayotib, tayinladi:

SHUKRONALIK



– Qizim, kelgunimcha uylarni tozalab, kitobingni o'qib o'tir. Shukrona istar-istamas «xo'p» dedi. Ota-onasi ketgach, u televizor ko'rib, biroz uxlab olmoqchi bo'ldi. Oynayi jahon orqali «ISHID fitnasi» ko'rsatuvi namoyish etilayotgandi. Unda Suriyada bo'layotgan notinchlik, o'zi tengi yosh bolalarning maktabda o'qish o'rniga, qo'lga qurol olib yurgani ko'rsatilardi.

Shukrona o'zimizning tinch va osoyishta O'zbekistonimizga, mustaqilligimizga shukrona keltirdi. Dangasalik qilib uxlamoqchi bo'lganidan xafa bo'ldi. Darrov o'rnidan turib, onasi aytdan yumushlarni bajarib, kitobini qo'lga oldi.

Mohidil G'AFUROVA,
Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 31-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

«BILIM» KRIPTOGRAMMASI

Shakldagi raqamlarda mumtoz mutafakkir shoir **Abdurahmon Jomiy** yozib qoldirgan ikki misra hikmatli so'z yashiringan. Uni, avvalo, quyidagi kalit so'zlarni topib, javoblari orqali bilib oling.

1. Biror tilga mansub harflarning ma'lum tartibda joylashgan majmui – 4, 5, 3, 13 10, 6.
2. So'z san'ati ta'rifini olgan fan – 4, 8, 4, 10, 3, 16, 6, 1.
3. So'z turkumi – 15, 3, 13, 4, 1.
4. Dunyoning kunchiqar tomoni – 7, 4, 2, 11.
5. Kishilik olmoshi – 15, 3, 14.
6. Yechish uchun beriladigan matematik ifoda – 9, 3, 15, 6, 5.
7. Maqoldan: Fan – ta'lim bulog'i, Bilim – 12, 4, 16, 6, 1 chirog'i.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



29-avgust 2016



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV, Dilshod KENJAYEV, Svetlana INOMOVA, Bahodir G'ANIYEV, Murtazo SULTONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz Adadi – 26389 Buyurtma – \$ 6857

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti – 18:00 Topshirildi – 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08